

**IJTIMOIY DAVLAT TUSHUNCHASI, MAZMUN VA MOHIYATI VA
TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14095198>

O'ralova Umida Solijon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Ijtimoiy ish mutaxassisligi magistranti

+998905359260

Annotatsiya

Mazku maqolada ijtimoiy davlat tushunchasi, bugungi kundagi ijtimoiy davlatlar, ijtimoiy davlatning shaxs hayotidagi o'rni, ijtimoiy davlatning belgilari va funksiyalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar

ijtimoiy davlat, ijtimoiy davlat nazariyalari, adolatli jamiyat, jahon tendensiyalar, yangi islohotlar, majmuaviy yondashuv, ijtimoiy himoya.

Аннотация

В данной статье говорится о понятии социального государства, социальных государствах сегодня, роли социального государства в жизни личности, признаках и функциях социального государства.

Ключевые слова

государство всеобщего благосостояния, теории государства всеобщего благосостояния, справедливое общество, мировые тенденции, новые реформы, коллективный подход, социальная защита.

Abstract

This article talks about the concept of the social state, social states today, the role of the social state in the life of the individual, the signs and functions of the social state.

Key words

welfare state, welfare state theories, fair society, world trends, new reforms, collective approach, social protection.

Hozirgi kunda dunyo tajribasidan kelib chiqadigan bo'lsak, ijtimoy davlat bu jamiyatning siyosiy tashkiloti, ya'ni tom ma'noda davlatdir. Ijtimoiy davlat-bu o'z fuqarolarining asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy xizmatlar va dasturlarni taqdim etadigan hukumat. Ijtimoiy davlat deganda, ijtimoiy sohaga



ustuvorlik qaratiladigan, fuqarolarning tengligi, ularning turli tabaqalarga ajralishiga yo'1 qo'ymaydigan, umumfarovonlik ta'minlangan jamiyat tushuniladi. Ayrim rivojlangan Yevropa mamlakatlarida davlatning ijtimoiy maqomi Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan. Masalan, Germaniya Konstitutsiyasida uning ijtimoiy davlat ekanligi belgilangan. Asosiy maqsad - jamiyatda yaratilayotgan moddiy va ma`naviy boyliklarni ijtimoiy adolat tamoyili asosida qayta taqsimlashdan iboratdir. Bunda har bir fuqaroning maishiy turmush tarzi holatini sifat jihatdan yuqori darajaga olib chiqish, aholining turmush sharoiti va sifati jihatdan tabaqlanishiga, ya`ni ular o`rtasidagi yashash uchun ketadigan sarf-xarajatlar bo`yicha farqlarning kattalashib ketishiga yo`1 qo`ymaslik va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga davlat tomonidan kafolatlar tizim orqali yordam ko`rsatiladi. Boshqacha aytadigan bo`lsak, maqsad yaratilgan ne`matlardan ijtimoiy kafolatlar orqali hamma bahramand bo`lishini ta`minlashdan iborat.

Ikkinchidan, jahondagi sosial-demokratik harakatlarning asosiy mazmunini ijtimoiy davlatning yaratuvchanlik va uning vositasida aholini o`ziga jalb qilish orqali davlatni boshqarishga harakat tashkil etadi. O`z navbatida, bu usul ko`pgina davlatning konstitusiyalarida hamda boshqa qonunlarida aks etgan. Davlat tomonidan ijtimoiy kafolat iqtisodiyot (avvalambor, yirik biznes) va soliq siyosatini boshqarish orqali ta`minlanadi.

Mutaxassislar tomonidan xorijiy davlatlarning ijtimoiy siyosatining tahlili natijasida ijtimoiy davlatning uchta modeli Skandivaniya, Kontinental, Amerika-Buyuk britaniya modellari ajratiladi.¹

Birinchidan, Shvesiya, Finlyandiya, Daniya, Norvegiya davlatlari Skandinaviya modelini o`zida namoyon qiladi. Bu mamlakatlarda davlat byudjetni qayta taqsimlash orqali ijtimoiy xarajatlarning anchagina qismini o`z bo`yniga oladi. Bu davlatlar o`z fuqarolarining ijtimoiy farovonligi, ta`lim, sog`liqni saqlash sohalariga, bolalar va yoshlarga, keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish uchun mas`ul bo`ladi. Bu faoliyat davlat byujeti va ijtimoiy sug`urta jamg`armalari tomonidan moliyalashtiriladi. Bu ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish asosan munisipalitetlar, ya`ni mahalliy boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, Germaniya, Avstriya, Belgiya va Fransiyada ijtimoiy davlatning kontinental modeli yuqori darajada rivojlangan. Bu davlatlarda davlat asosan aholining muhtoj qismiga ijtimoiy yordam pullarini berishga mas`ul hisoblanadi. Lekin aholiga davlat ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish bilan shug`ullanmaydi. Ijtimoiy xarajatlar davlat va xususiy ijtimoiy sug`urta jamg`armalari tomonidan qoplanadi.

¹ Зухриддинович, Е. Д. (2022). АНТИКОРРУПЦИОННАЯ СТРАТЕГИЯ УЗБЕКИСТАНА: ЗАРУБЕЖНЫЙ И ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.8 Political sciences).



Ya`ni ijtimoiy ta`minot byujetdan ajratiladigan mablag`lar hamda ish beruvchi va xodimlarning sug`urta badallaridan ta`minlanadi.

ijtimoiy davlatchilik Osiyo davlatlarida - Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvanda ham rivojlanib bormoqda. Ijtimoiy davlatchilik O`zbekistonda ham rivojlanib bormoqda.

Ijtimoiy davlat - mazkur sohaga ustuvorlik qaratiladigan, fuqarolar tengligi ta'minlanadigan, ularning tabaqalarga ajralishiga yo'l qo'yilmaydigan, umumiy farovonlik bo'ladigan jamiyat demak. Ikkinci jahon urushidan keyin ijtimoiy davlat rivojlanishining sifat jihatidan yangi bosqichi - uni konstitutsiyaviy tamoyilda qurish, davlatning alohida turi sifatida talqin qilish boshlangan. Urushdan ko'p o'tmay, ijtimoiy davlat konstitutsiyaviy tamoyil sifatida Yaponiya, Germaniya, Frantsiya, Italiya, keyinroq 70-yillarda Ispaniya, Portugaliya, Shvetsiya konstitutsiyalarida mustahkamlangan.² Hozirgi vaqtda dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari u yoki bu darajada de-fakto ijtimoiy davlatlar hisoblanadi.

Ijtimoiy davlati nazariyasi uzoq tarix va xilma-xil qarashlarga ega bo'lib, u turli nuqtai nazar va yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy davlati nazariyasi qamrab oladigan asosiy mavzulardan ba'zilarini tadqiqot mavzusi doirasida o'rGANIB kelinmoqda.³

Sinfiy-analitik ijtimoiy davlat nazariyasi: Bu yondashuv davlatni shakllantirishda sinfiy qarama-qarshilik va iqtisodiy manfaatlarning ro'liga e'tibor qaratadi. Unda davlat betaraf hakam emas, balki hukmron sinfning quyi sinflarni ekspluatatsiya qilish va zulm qilish quroli ekanligi ta'kidlanadi. Davlat sinfiy kurash quroli va tarixiy materializm mahsuli sifatida qaraladi. Sinfiytahliliy yondashuv sinfiy munosabatlarning davlat va uning siyosatini shakllantirishdagi ro'lining ahamiyati yuqori ekanligiga alohida urg'u beradi .

Liberal ijtimoiy davlat nazariyasi: Bu yondashuvga ko'ra davlat fuqarolarning huquqlari, erkinliklarining kafolati bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Bu nazariyaga ko'ra, davlat o'z vakolatlarining bir qismini saqlagan holatda oqilona yondashuv va shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma bilan mustahkamlaydi.

Neo-Veber ijtimoiy davlat nazariyasi: Bu yondashuv davlatning byurokratik va ma'muriy jihatlariga qaratilgan. U Veberning ratsional-huquqiy hokimiyat kontseptsiyasiga va uning siyosiy rejimlar tipologiyasiga asoslanadi. Unda davlat o'z manfaatlari, mantiqiyligi va muxtoriyatiga ega bo'lgan murakkab tashkilot sifatida tahlil qilinadi. Davlat tartib va qonuniylik manbai sifatida qaraladi. Bundan tashqari, Neo-Veber ijtimoiy davlat nazariyasi zamonaviy ijtimoiy davlatda sodir

² Ernazarov, D. (2020). DZ СИЁСИЙ ТОЛЕРАНТЛИК ТАМОЙИЛЛАРИНИНГ ДАВЛАТ СИЁСАТИДАГИ РОЛИ ВА АҲАМИЯТИ. Архив научных исследований.

³ Anarbaev Jakhongir Batir o'g'li "IJTIMOIY DAVLAT NAZARIYALARI" maqola



bo'layotgan o'zgarishlar va muammolarini tahlil qiluvchi istiqboldir. Bunda ijtimoiy davlat nafaqat sinfiy kurash, iqtisodiy manfaatlar yoki oqilona tanlov mahsulidir, balki davlat-jamiyat munosabatlarini, davlat salohiyatini va ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi tarixiy, madaniy va institutsional omillarning natijasidir, degan g'oyaga asoslanadi.

Kulturalistik ijtimoiy davlat nazariyasi: Bu yondashuv madaniyat, o'ziga xoslik va me'yorlarning davlatni shakllantirishdagi roliga e'tibor qaratiladi. Unda davlat nafaqat moddiy mavjudot, balki jamiyat qadriyatlari, e'tiqodlari va rivoyatlarini aks ettiruvchi va takror ishlab chiqaruvchi ramziy va diskursiv konstruksiya deyishimiz mumkin. Madaniyatni bir guruh odamlarning jamoaviy o'ziga xosligi va xulq-atvorini shakllantiradigan qadriyatlар, e'tiqodlar, me'yorlar va amaliyotlar yig'indisi sifatida tushunish mumkin. Davlat esa, madaniyat tashuvchisi va ma'no yaratuvchisi sifatida qaraladi.

O'zbekiston Konstitutsiyasida ham ijtimoiy tenglik va ijtimoiyadolat printsiplarini amalda ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2021 yil 7 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligiga bag'ishlangan tabrigida "Hozirgi kunda O'zbekiston ijtimoiy davlat vaadolatli jamiyat qurish sari dadil bormoqda. Shu sababli "Yangi O'zbekiston - ijtimoiy davlat", degan tamoyilni konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlashning vaqtisi-soati yetdi"⁴ deb ta'kidlagandi. Xususan yangi tahrirdagi Konstitutsianing 1-moddasida:

O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Davlatning "O'zbekiston Respublikasi" va "O'zbekiston" degan nomlari bir ma'noni anglatadi.⁵

O'zbekiston 2022 yili nafaqat zamonaviy jahon tendensiyalari yutuqlarini qabul qiladigan va moslashtiradigan, balki o'zi ham kamida mintaqaviy kun tartibini shakllantirgancha yuzaga chiqadigan harakatchan, yangiliklarga ochiq hamda dunyo hamjamiyatining doimiy ravishda rivojlanib boruvchi a'zosini o'zida aks ettirmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot falsafasini birmuncha yorqin namoyon qiladigan to'rtta yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin.

Islohotlarning farqli tomoni ularning yaqqol ifodalangan ijtimoiy yo'nalgaligi, insonga, uning ehtiyojlariga yaqinroq bo'lishga intilishi, islohotlar natijasida odamlarning tez o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashishiga ko'maklashish, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va samarali ijtimoiy himoya tizimini yaratishdan iborat.

⁴ Shavkat Mirziyoyev 2021 yil 7 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligiga bag'ishlangan tabrigidagi nutqidan

⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023.05.01



Aynan Prezident Shavkat Mirziyoyev sharofati bilan o'tgan yillarda tabu qo'yilgan (taqiqlangan) kambag'allik muammosi jamoatchilik muhokamasiga olib chiqildi va ko'p hollarda mamlakatning ijtimoiy siyosati strategiyasini belgilay boshladi. U ilk bor bu mavzuga o'zining 2020 yil 24 yanvarida Parlamentga murojaatida to'xtalib, aholining kam ta'minlangan qatlami umumiy aholi miqdorining 12-15 foizini yoki 4-5 mln kishini tashkil etishini ta'kidladi.

Aynan shu lahzadan boshlab kambag'allikni qisqartirish muammosini hal qilishga majmuaviy yondashuvlarni ishlab chiqish boshlandi. Dastavval, O'zbekiston Respublikasi Mahalla va nuroniylarni oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tashkil etildi, Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida moliyaviy-iqtisodiy masalalar va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha bosh vazir o'rinosari lavozimi paydo bo'ldi.

O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi mamlakatda kambag'allik chegarasini aniqlashda ko'rsatkich va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha mo'ljal olish rolini o'ynaydigan uy xo'jaliklarini o'rganish natijalari bo'yicha aholining eng kam iste'mol xarajatlari (IHEKM, insonning oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, xizmatlarga kundalik ehtiyoji) ni hisoblashni boshladi. Bundan tashqari, Butunjahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi ekspertlari bilan hamkorlikda o'rta va uzoq muddatli istiqbolda kambag'allikni qisqartirish maqsadlarini aniqlash uchun "2021-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish strategiyasi"ning loyihasi ishlab chiqildi.⁶

Majmuaviy yondashuv aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini manzilli qo'llab-quvvatlashni ham o'z ichiga oladi. "Temir", "Ayollar" va "Yoshlar" daftarlарини yaratish, yagona ijtimoiy reyestr orqali muhtojlarga yordam ko'rsatish kabi tashabbuslarni alohida ta'kidlash kerak. Ko'rilgan chora-tadbirlar sharofati bilan ijtimoiy pensiya va nafaqa oluvchi oilalar miqdori ikki barobarga oshdi. Ijtimoiy davlatni odamlar uchun qulay yashash muhitini, rivojlangan mahalliy infratuzilmalarni yaratmay vafuqarolarni arzon uy-joy bilan ta'minlamay turib, tasavvur qilib bo'lmaydi. Oxirgi yillarda O'zbekistonda bu yo'nalishlarda juda ko'p ishlar qilindi. "Obod mahalla" va "Obod qishloq" dasturlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. O'zbekiston Prezidenti bu dasturlarning ijtimoiy mezoni to'g'risida shunday deydi: "Agar mahalla obod qilinsa, butun mamlakat obod bo'ladi. Agar mahalla o'zgarsa, butun jamiyat o'zgaradi".

Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jadallahgani va O'zbekiston yangi taraqqiyot yo'liga qadam qo'ygani, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ta'limiy, ilmiy muhitning o'zi esa ancha murakkab va serqirra bo'lib borayotgani,

⁶ Roxila Abdurayimovna Abdukarimova "YANGI O'ZBEKISTON — IJTIMOIY DAVLAT" nomli maqola

bu sodir bo'layotgan jarayonlarni uzlusiz tahlil qilishning, tezda tuzatishlar kiritishning, boshqaruvni takomillashtirish va o'sishning yangi manbalarini kreativ tarzda topishning dolzarbligini oshirishi barchaga ayon bo'ldi. Shuning uchun 2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasining qabul qilinishi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga tuzatishlar kiritish hamda ularni umumxalq muhokamasiga kiritish jarayonining boshlanishi qonuniy ko'rindi. Shuningdek, asosiy konsepti "inson – jamiyat – davlat" bo'lgan islohotlar falsafasining keyingi evolyutsiyasi tabiiy ko'rindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023.05.01
2. LEX.UZ sayti materiallari.
3. Shavkat Mirziyoyev 2021 yil 7 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligiga bag'ishlangan tabrigi.
4. Зухриддинович, Е. Д. (2022). АНТИКОРРУПЦИОННАЯ СТРАТЕГИЯ УЗБЕКИСТАНА: ЗАРУБЕЖНЫЙ И ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.8 Political sciences).
5. Ernazarov, D. (2020). DZ СИЁСИЙ ТОЛЕРАНТЛИК ТАМОЙИЛЛАРИНИНГ ДАВЛАТ СИЁСАТИДАГИ РОЛИ ВА АҲАМИЯТИ. Архив научных исследований
6. Anarbaev Jakhongir Batir o'g'li "IJTIMOIY DAVLAT NAZARIYALARI" maqola
7. Roxila Abdurayimovna Abdukarimova "YANGI O'ZBEKISTON – IJTIMOIY DAVLAT" nomli maqola